



THE IMPACT OF SOCIAL MEDIA ON ENGLISH LEXICAN

Saidova Gulsevar Husan qizi

O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Isamuxamedova Munisxon Najmitdinovna

Abstract

This article examines the positive and negative impact of social media on the modern English lexicon. It also explores the role of social media in contemporary society and its contribution to the development of English lexicology. In addition, the concept of lexicology, as well as hashtags and internet-specific units such as abbreviations and acronyms, are analyzed with illustrative examples.

Keywords: Social media, abbreviations, acronyms, hashtags, Twitter, TikTok, Instagram, Facebook.

Introduction

Kirish

Hozirgi globallashayotgan zamonda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish o'zini oqlamoqda. Shunday ekan, internet tarmog'i inson hayotidagi ajralmas vositaga aylanib ulgurdi. Ushbu zamonaviy axborot texnologiyalar rivojlanib, insonlararo o'zaro muloqot qilish, yangiliklardan xabardor bo'lish, moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va ta'limiy faoliyatlarida ish yuritish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda, ijtimoiy tarmoqlar til va jamiyatga bog'liq hisoblanadi, ya'ni internet til leksikasiga ta'sir qiladi. "Ijtimoiy tarmoqlar va ingliz tili" bu ikkala termini hozirgi kunda deyarli hamma joyda kuzatish mumkin bo'lib qolgan. Ayni hozirgi paytda ingliz tili bu dunyo bo'yicha asosiy so'zlashuv tili bo'lib hisoblansa, ijtimoiy tarmoqlar bu eng ko'p foydalanuvchilar ega bo'lgan asosiy ma'lumotlar va asosiy baza bo'lib hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, mazkur ikkala global mavzular ham bir biriga uzviy tarzda bog'liq hisoblanadi. Hozirda ingliz tili ijtimoiy tarmoqlarda globalaloqa vositasi sifatida beqiyos rol o'ynamoqda. Ijtimoiy platformalar –Twitter, Instagram, TikTok, Facebook va boshqa ko'plab tarmoqlar –har kuni millionlab foydalanuvchilarni birlashtiradi, ularning aksariyati ingliz tilidan asosiy aloqa tili sifatida foydalanadi.



Muhokama

Ayni paytda insonlar ko'p hollarda virtual platformalardan keng foydalanishmoqda. Bundan aniqlik, ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi so'zlarni qisqartirish orqali yangi qisqartma so'zlar hosil bo'ladi, ya'ni internet tilning lug'at boyligini rivojlantirib, leksikologiya bo'limiga katta hissa qo'shdi. Leksikologiya - (grekcha "lexican" - lug'at va "grapho" yozaman) lug'at tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha bo'lib, muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'lim, har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shundan kelib chiqqanda, ijtimoiy tarmoqlar ingliz tili leksikasiga yetarli darajada ta'siri bor. Chunki ijtimoiy tarmoqlar orqali ingliz tiliga yangi lug'at birliklari kirdi; grammatik me'yorlar o'zgardi va muloqot uslublari qayta shakllandi. Bu esa ushbu tilning rivojlanishida katta hissa qo'shdi. Ya'ni ijtimoiy tarmoqlar tezkor va norasmiy onlayn muloqot tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos lingvistik shaklni vujudga keltirmoqda. Qisqartmalar(masalan, "LOL" - "laugh out loud" - baland ovozda kulish), Akronimlar ("BRB" - be right back - qaytish) va emoji belgilar raqamli muloqotning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu birliklar foydalanuvchilarga hissiyot, fikrlarni ixcham va aniq ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, hashtaglar (#) fikrlarni qisqa shaklda ifodalash vositasi sifatida qo'llaniladi boshlandi. Misol tariqasida, #MeToo va #BlackLivesMatter kabi harakatlar ijtimoiy tarmoqlarda hashtaglardan ijtimoiy muammolarni yoritish, aniq ko'rsatish uchun foydalaniladi.

Biroq bu tendensiyalar, ayniqsa, tezlik va qisqalikni aniqlikdan ustun qo'yadigan yosh foydalanuvchilar orasida an'anaviy grammatika va imlo me'yorlarining yemirilishi borasida xavotirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda qisqartirilgan so'zlar, shaxsiylashtirilgan imlo va noto'g'ri grammatika keng tarqalgan. Bu esa, ayniqsa, yoshlar orasida normativ til qoidalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, "LOL" yoki "OMG" kabi qisqartirishlar ba'zida normativ leksikaga kirib qolishi mumkin. Bundan tashqari, tilning soddalashtirilishi, ya'ni internet saytlar tilni yanada osonlashtirib, uzoq muddatda nutqdagi chuqur grammatika va stilistik murakkabliklarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlari ham mavjud bo'lib, ulardan biri erkin kirish va muloqot, ochiq aytganda, global muloqotni osonlashtiradi, bu esa foydalanuvchilarga dunyoning turli joylaridagi odamlar bilan bevosita suhbatlashish orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish



imkonini beradi. Bu jarayon foydalanuvchilarni chet tillarida erkin va tez o‘ylashga majbur qiladi. Shuningdek, Twitter kabi qisqa formatli platformalarda foydalanuvchilar qisqa, mazmunli jumlar yaratishga majbur bo‘ladi. Bu esa ularning lingvistik intellektini oshirishga imkon yaratishi mumkin.

Xulosa

Xulosa shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga turli davlatlardagi millat vakillari bilan muloqot qilib, o‘sha til ko‘nikmalarini yaxshi rivojlantirishga yordam beradi. Bu platformalar lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali bo‘lsa-da, til me‘yorlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Foydalanuvchilar tilni samarali o‘rganish uchun texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llashi, ammo bu jarayonda lingvistik qoidalarga rioya qilishi zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ijtimoiy tarmoqlarning inson hayotdagi o‘rni-Xadicha
<https://share.google/YdLALgWehsmZ2tYbF>
2. Leksikologiya tushunchasi va unda so‘zning mohiyati
<https://share.google/Z3Pn6GoLfrGvEQC43>
3. Leksikologiya - Vikipediya <https://share.google/qXN5jTWVYg1JrgO53>
4. View of the influence of social media on English language use @Mi Brauzer |
<https://refocus.uz/index.php/1/article/view/1329/1066>
5. " Changing meanings: the role of society in influencing semantic shifts in English"| Образование наука и инновационные идеи в мире @Mi Brauzer |
<https://scientific-jl.org/obr/article/view/9547>
6. Ijtimoiy tarmoqlarning til o‘rganish va foydalanishga ta‘siri | Лингвоспектр
<https://share.google/c87ca7GxRguKrno7m>.